

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

- [15] M. Owrank, M. Aminy, M.T. Jamal-Abad, M. Dehghan, Experiments and simulations on the thermal performance of a sunspace attached to a room including heat-storing porous bed and water tanks, *Build. Environ.* 92 (2015) 142–151. <https://doi.org/10.1016/j.buildenv.2015.04.022>.
- [16] L. Ma, X. Zhang, D. Li, M. Arıcı, Ç. Yıldız, Q. Li, S. Zhang, W. Jiang, Influence of sunspace on energy consumption of rural residential buildings, *Sol. Energy* 211 (2020) 336–344. <https://doi.org/10.1016/j.solener.2020.09.043>.
- [17] S. Lu, H. Tong, B. Pang, Study on the coupling heating system of floor radiation and sunspace based on energy storage technology, *Energy Build.* 159 (2018) 441–453. <https://doi.org/10.1016/j.enbuild.2017.11.027>.
- [18] Z. Liu, D. Wu, B.J. He, Q. Wang, H. Yu, W. Ma, G. Jin, Evaluating potentials of passive solar heating renovation for the energy poverty alleviation of plateau areas in developing countries: A case study in rural Qinghai-Tibet Plateau, China, *Sol. Energy* 187 (2019) 95–107. <https://doi.org/10.1016/j.solener.2019.05.049>.
- [19] Q. Li, H. Hu, L. Ma, Z. Wang, M. Arıcı, D. Li, D. Luo, J. Jia, W. Jiang, H. Qi, Evaluation of energy-saving retrofits for sunspace of rural residential buildings based on orthogonal experiment and entropy weight method, *Energy Sustain. Dev.* 70 (2022) 569–580. <https://doi.org/10.1016/j.esd.2022.09.007>.
- [20] G. Allesina, C. Ferrari, A. Muscio, S. Pedrazzi, Easy to implement ventilated sunspace for energy retrofit of condominium buildings with balconies, *Renew. Energy* 141 (2019) 541–548. <https://doi.org/10.1016/j.renene.2019.04.037>.
- [21] G. Chiesa, M. Simonetti, G. Ballada, Potential of attached sunspaces in winter season comparing different technological choices in Central and Southern Europe, *Energy Build.* 138 (2017) 377–395. <https://doi.org/10.1016/j.enbuild.2016.12.067>.
- [22] J. Gainza-Barrencua, M. Odriozola-Maritorena, R. Hernandez_Minguillon, I. Gomez-Arriaran, Energy savings using sunspaces to preheat ventilation intake air: Experimental and simulation study, *J. Build. Eng.* 40 (2021). <https://doi.org/10.1016/j.jobe.2021.102343>.
- [23] N.R. Avezova, K.A. Samiev, A.R. Khaetov, I.M. Nazarov, Z.Z. Ergashev, M.O. Samiev, S.I. Suleimanov, Modeling of the unsteady temperature conditions of solar greenhouses with a short-term water heat accumulator and its experimental testing, *Appl. Sol. Energy* (English Transl. *Geliotekhnika*) 46 (2010). <https://doi.org/10.3103/S0003701X10010020>.
- [24] Y.A. Çengel, A.J. Ghajar, *Heat and Mass Transfer: Fundamentals & Applications*, McGraw-Hill Education, New York, 2015.
- [25] K.A. Samiev, Simulation of thermal regime of room, heated by passive insolation solar heating systems with three-layer ventilated translucent barriers, *Appl. Sol. Energy* (English Transl. *Geliotekhnika*) 45 (2009). <https://doi.org/10.3103/S0003701X09040197>.
- [26] <https://power.larc.nasa.gov/data-access-viewer/>, (n.d.).

OQDARYO TUMANI AHOLI SONINING O'SISHI VA MEXANIK HARAKATI.

Ruxshona G'ulom qizi Sultonmurodova

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

301-guruh talabasi

Email:ruxshonasultonmurodova5@gmail.com

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Annotatsiya. Mazkur maqolada Samarqand viloyatidagi Oqdaryo tuman aholisining tug’ulish, o’lim, tabiiy o’sish, migratsiya va aholi zichlik ko’rsatkichlari o’rganilgan. Maqolada Oqdaryo tumanining 2010-2022-yillar oralig’idagi statistik ma’lumotlar asosida aholi sonining 2030-yilgacha bo’lgan o’sish prognozi Ekstrapolyatsiya usuli asosida hisoblab chiqildi.

Kalit so’zlar: aholi soni, tabiiy o’sish, migratsiya, tug’ilish, o’lim, aholi zichligi.

Abstract. This article studies the indicators of birth, death, natural growth, migration, and population density of the population of the Akdaryo district of the Samarkand region. This article presents projections of population growth rates in the future.

Key words: Population, natural growth, migration, births, deaths, average population density.

Kirish. Oqdaryo tumani-Samarqand viloyatida joylashgan. 1926-yil 29-sentyabrdan tashkil etilgan. Ishtixon, Pastdarg’om, Samarqand, Jomboy va Payariq tumanlari bilan chegaradosh. Aholisi 161,700(2022 y) kishi. Oqdaryo tumanda 2ta shaharcha (Dahbet,Loish), 35ta (2025 y) Mahalla fuqorolar yig’ini mavjud. Oqdary - tuman nomi Zarafshon daryosining irmoqlaridan biri Oqdaryodan olingan. Bunga sabab tuman daryo buyi hudida joylashganligi.[**O’zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, “Oqdaryo”]**

Ushbu maqola orqali Oqdaryo tumanining demografik holatini, aholi zichligi va o’zgarish dinamikasini tahlil qilishga bag’ishlanadi. Aholi geografiyasi geografiya fanining muhim bo’limlaridan biri bo’lib, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini chuqur tushunishga xizmat qiladi. Bugungi kunda aholining qarishi va tabiiy o’sish sur’atining pasayishi ko’plab mamlakatlarda dolzarb muammoga yalangan. Bu holat kelajakda bizning hududimizda ham yuzaga kelishi mumkin. Shu kabi holatlarni oldini olish va aholining tabiiy o’sishini barqaror holatini saqlash uchun ham aholi bilan bog’liq jarayonlarini o’rganish bugungi kunda dolzarb masala hisoblanadi. Oqdaryo tumani Samarqand viloyatida joylashgan bo’lib, 2025-yil ma’lumotiga ko’ra maydoni 0.39 ming kv.km, aholisi 177,2 ming kishi shundan erkaklar 89,6 ming va ayollar 87,6 ming kishi. Oqdaryo tuman markazi Loish shaharchasi, tumanda 105 aholi punktlari mavjud. Tumandan viloyat markazigacha bo’lgan masofa 36 kmni tashkil qiladi. Aholi geografiyasi va uning asosiy ko’rsatkichlari tuman rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot aholi soni va uning o’zgarish dinamikasini tahlil qilib, bu jarayonning iqtisodiy va ijtimoiy salohiyatga ta’sirini aniqlashga qaratilgan.

Aholi - Aholi deganda ma’lum hududda yashovchi kishilar guruhi tushuniladi. Mazkur guruuhlar zaminida jamiyat shakllanadi. Yer kurrasada insoniyat paydo bo’lganidan to hozirga qadar bir qancha davrlar o’tdi. Ana shu davrlarda inson, jamiyat o’z mavjudligini saqlash va rivojlanish uchun muntazam harakat qilib keldi. Ushbu jarayonda aholi tabiiy resurslardan foydalaniib, moddiy ehtiyoji uchun zarur vositalarni yaratdi, xo’jalik tizimini barpo etdi, rivojlantirdi. Ana shunga monand yer kurrasida aholi va aholi maskanlarining soni ham ko’payib bordi. Demak jamiyatni rivojlanishida uch asosiy omil – aholi, tabiiy resurslar va xo’jalik o’zaro bog’liq holda alohida ahamiyat kasb etadi va geografiya fanining asosiy ob’ekti

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

hisoblanadi. Geografiya fani esa o‘z o‘rganish predmeti, maqsadi va mohiyatiga qarab bir nechta qismlarga bo‘linadi. Ularga shartli ravishda tabiiy (tabiiy geografiya, umumiy yer bilimi, landshaftshunoslik, paleogeografiya, geomorfologiya, iqlimshunoslik, gidrologiya, biogeografiya, tuproqshunoslik), sotsial (umumiy sotsial-iqtisodiy geografiya, aholi geografiyasi, rasseleniya va mehnat resurslari, siyosiy geografiya, sanoat, qishloq xo‘jaligi, transport, xizmat ko‘rsatish, madaniyat va boshqalar geografiyasi), tabiiy-sotsial (ijtimoiy-ekologiya, geoekologiya, tarixiy, tibbiy, rekrasion geografiya, okeanlar geografiyasi, resursshunoslik va tabiatdan foydalanish) va geografiyaga bilvosita dahldor fanlar (kartografiya, geografiya tarixi, toponimika, metageografiya)1 qismlarini kiritish mumkin. [M.R.BO‘RIEVA, Z.N.TOJIEVA, S.S. ZOKIROV “Aholi geografiyasi va demografiya asoslari ” 5-bet, T-2011]. Bugungi kunda yer yuzida aholi soni 8 mldr 218 ming kishidan ortiq. O‘zbekiston aholisi esa 37 mln 700ming kishi, shundan Samarqand viloyat aholisi 4315,3 ming kishini tashkil qiladi. Dunyoda o‘rtacha umr Yoshi 73,5, bu ko‘rsatkich Uzbekistonda 72,7 yosh. [Ushbu ma’lumotlar worldometers va samstat.uz saytlaridan olindi].

Metodlar (Tadqiqot usullari)

Ushbu tadqiqotda demografik tahlil usuli, statistik solishtirish, trend analizi va prognozlash metodlaridan foydalanildi. Ma’lumotlar manbai sifatida Oqdaryo tuman statistika bo‘limi tomonidan taqdim etilgan 2022–2024 yillarga oid demografik ko‘rsatkichlar asos qilib olindi. Ma’lumotlar rasmiy hujjatla, yillik hisobatlar va mahalliy tahlil materiallariga tayanadi. Birinchi bosqichda aholi soni, tug‘ilish, o‘lim, tabiiy o‘sish, migratsiya va jinsiy tarkib kabi ko‘rsatkichlar tizimli tarzda o‘rganildi. Ikkinchi bosqichda ular yillar kesimida solishtirildi va promille ko‘rsatkichlari hisoblab chiqildi. Uchinchi bosqichda esa mavjud o‘zgarishlar asosida ekstrapolyatsiya usuli orqali keyingi yillarga prognozlar ishlab chiqildi. Bunda, yil sayin tabiiy o‘sish 200 kishiga kamayishi asosida 5 va 10 yillik taxminiy demografik holat tahlil qilindi. Ilmiy tahlil davomida quyidagi adabiyotlar ham metodik asos sifatida qo‘llanildi: M.R. Bo‘rieva, Z.N. Tojieva, S.S. Zokirov. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari. – T.: 2011.Q.M. Yoqubov. Ijtimoiy geografiya asoslari. – T.: 2009. Samarqand viloyati va Oqdaryo tumani statistik to‘plamlari (2022–2024). Worldometers va samstat.uz statistik portallaridan olingan ma’lumotlar. Aholi o‘sishini yaxshi tasvirlash va dalillar bilan isbotlash uchun har xil statistic jadvallar, grafik va diagrammalar tuzulishi maqsadga muvofiqdir. Bunday qo’shimcha materiallar ish matnini yanada boyitishi va ilmiy asoslanishining muhim sharti hisoblanadi.

Aholini geografik o‘rganishda uning yosh va jinsiy, milliy tarkiblari ham taxlil etilmog‘i zarur. Biroq bu kabi demografik va etnografik masalalar, eng avvalo, hududiy tomondan ko‘rilishi kerak. Shu bilan birga ularni tadqiq etish va tegishli xulosalar chiqarish asosan aholini ijtimoiy muxofaza qilish, mehnat resurslari va bozorining shakllanishi nuqtai nazardan olib borilgani ma’qul. Ayni paytda turli millatga mansub bo‘lgan axolining xududiy tarkibi, ya’ni etnogeografik masalalarni o‘rganish alohida ahamiyatga ega. [Geografik tadqiqot usullari va uslublari fanidan ma’ruza matni, Termiz Davlat Universiteti]

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Tadqiqot davomida demografik holatni o‘rganishda quyidagi ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi:

1. Statistik tahlil usuli – Oqdaryo tumani bo‘yicha tug‘ilish, o‘lim, tabiiy o‘sish, migratsiya kabi asosiy demografik ko‘rsatkichlar statistik usulda tahlil qilindi. Raqamli ma’lumotlar asosida yillik o‘zgarishlar o‘rganilib, demografik jarayonlar tafsiflandi.
2. Solishtirma (komparativ) tahlil usuli – 2023 va 2024-yil ko‘rsatkichlari solishtirilib, demografik tendensiyalar (pasayish yoki o‘sish) aniqlashga harakat qilindi.
3. Tizimli tahlil usuli – demografik jarayonlar, ijtimoiy-iqtisodiy omillar, migratsion harakatlar, ish bilan bandlik holati o‘zaro bog‘liqlikda tizimli yondashuv asosida tahlil qilindi.
4. Prognozlash usuli – mayjud tendensiyalar asosida yaqin 3–5 yilga mo‘ljallangan prognozlar tuzildi. Chiziqli ekstrapolyatsiya usuli yordamida demografik o‘sish dinamikasining istiqbollari baholandi.
5. Ekspert baholash usuli – demografik o‘zgarishlarga ta’sir qiluvchi omillar (yashash sharoiti, bandlik darajasi, migratsiya) bo‘yicha hududiy mutaxassislar va aholi fikrlari o‘rganildi. Shuningdek, aholi tarkibidagi jinsiy mutanosiblik barqarorligicha qolmoqda. 2024-yil ma’lumotlariga ko‘ra, tumanda erkaklar soni 89,600 nafar, ayollar esa 87,600 nafarni tashkil qilgan. Bu esa aholi jinsiy tarkibining nisbatan muvozanatli ekanligini ko‘rsatadi. Demografik o‘zgarishlar orasida tug‘ilish darajasining pasayishi va ajrimlar sonining ortishi jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy muhit, oila instituti barqarorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, yosh oilalar orasida turmushning ilk yillarda yuzaga keladigan nizolar ajrimlar ko‘payishiga sabab bo‘lmoqda. Aholi migratsiyasida ijobjiy saldo kuzatilgan bo‘lsa-da, bu asosan tuman ichkarisiga qaytib kelayotgan avvalgi aholining hissasiga to‘g‘ri keladi. Bu holat hududdagi yashash sharoitlari yaxshilanayotganini va bandlik darajasining oshayotganini ko‘rsatadi.


Bundan tashqari, aholi tarkibida qarish jarayoni asta-sekin yuzaga kelayotGANI sezilmoqda. Bu esa kelajakda ishchi kuchi bilan ta’minot, pensiya tizimi, tibbiyot xizmatlarining yuklamasi kabi masalalarni rejalashtirish zarurligini anglatadi

Asosiy qism: Oqdaryo tuman aholisi ham yillar davomida o‘zgarib kelmoqda. Bu jarayonga turli xil omillar o‘z ta’sirini o’tkazadi. Aholining tabiiy harakati natijasida aholi soni, jinsi, o‘rtacha umr yoshi, yosh va keksalar ulushi o‘zgarib turadi. Aholida tug‘ulish ko‘rsatkichi qancha yuqori bo‘lsa, aholi shuncha yosharib boradi ya’ni “Depopulatsiya” jarayoni kuzatilmaydi. Aholining sifatiy ko‘rsatkichlari esa, ma’lumotlilik, salomatlik va o‘rtacha umr yoshi kabi ko‘rsatkichlar orqali o‘rganiladi. Aholining miqdoriy va sifatiy ko‘rsatkichlari o‘zaro bog‘liq holda bo‘ladi. Ma’lum bir davr davomida jamiyat taraqqiyoti jarayonida aholida turlicha o‘zgarishlar bo‘lib kelmoqda. Aholining salomatlik ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lishi o‘sishiga ta’sir qilsa, aholining ma’lumotlilik darjasini yuqori bo‘lishi ko‘plab rivojlangan mamlakatlarda aholining o‘sishiga salbiy ta’sir qilmoqda. Tuman aholisining o‘sishi va dinamik harakatiga ham turli davrlarda turli omillar ta’sir qilgan. Quyida, Oqdaryo tuman aholisining yillar davomida o‘sish jadvali berilgan:

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

1-jadval

AHOLI SONI(MING KISHI)



Manbaa: Muallif tomonidan Oqdaryo tuman statistikasi bo’limi ma’lumotlar asosida ishlab chiqilgan.

2010-yilda aholi soni 2975 nafarni tashkil qilgan bo’lsa 2015-yilga borib bu ko’rsatkich 3533 nafarni tashkil qilgani kuzatiladi. Yana 5yildab so’ng ya’ni 2020-yilga borib aholi soni 4291 nafarga yetgan. 2023-yilda 4816 nafar aholi majvudligi aniqlandi. Ma’lumotlar shuni ko’rsatmoqdaki 2015-2017-yillar oralig’ida aholi sonida biroz pasayish kuzatilib so’ngra yana o’sgan.

Oqdaryo tuman aholisining 2010-yildan to 2023-yilgacha bo’lgan ko’rsatkichlari berilgan. Aholining eng kam o’sish davri 2011-yilga va deyarli qolgan barcha yillarda o’sish ko’rsatkichlari yuqoriligi kuzatilgan. 2011-yilda aholi o’sishiga bir qancha omillar ta’sir qilgan: ishsizlik, ishga joylashishda hujjat ishlari va ishga joylashish jarayonining murakkabligi va oylik maoshining pastligi kabi omillar ta’sir qilgan va aynan shu davrda chetga migratsiya jarayoni tezlashgan. Qolgan davrlarda aholi o’sib bormoqda. Ammo, bugungi kunda yoshlar orasida ayniqsa 1 yoki 2 farazand ko’pligi aniqlandi.

Keyingi jadvalda aholining boshqa ko’rsatkichlari bilan tanishish mumkin:

2-jadval

	Kishi		Koeffitsienti, 1000 aholiga nisbatan promillida	
	2023	2024	2023	2024
Aholining tabiiy o’sishi	4069	3850	23.7	21.9
Tug’ilganlar	4816	4630	28.1	26.4
Vafot etganlar	747	780	4.4	4.5
Tuzilgan nikohlar	1244	1207	7.3	6.9

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Ajrimlar	154	226	0.9	1.3
Ko’chib kelganlar	575	700	3.4	4
Ko’chib ketganlar	549	529	3.2	3

Manbaa: Muallif tomonidan Oqdaryo tuman statistikasi bo’limi ma’lumotlar asosida ishlab chiqilgan.


Ushbu jadval orqali aholining tabiiy o’sish ko’rsatkichlari pasayishi kuzga yaqqol tashlanadi. Tabiiy o’sish ko’rsatkichlarida 2023 va 2024 yilda tabiiy o’sish 219 kishiga kamayaginini ko’rishimiz mumkin. 2023-yilda aholining tabiiy o’sishi 4069 kishi yoki 23.7 promilli bo’lsa, bu ko’rsatkich 2024-yilda 3850 kishi yoki 21.9 promillini tahkil etgani aniqlandi. Tug’ulish esa 186 kishiga kamaygan. Tug’ilish 2023-yilda 4816 kishi yoki 28.1 promilli, 2024-yilda esa 4630 kishi yoki 26.4 promilli bo’lgan. Vafot etganlar soni esa oshib bormoqda. 2023-yilda jami 747 nafar (4.4promilli) inson vafot etgan bo’lsa, 2024-yilda 780 kishi (4.5 promilli) vafot etgani kuzatilgan. Ajrimlar ham 2023 yilga qaraganda 2024 yilda 72kishiga oshgan. Ajirimlar 2023-yilda 154 yoki 0.9 promilli, 2024-yilda esa 226 yoki 1.3 promillini tashkil qilgan. Ajirimlarning ko’payishiga iqtisodiy muammolar, ijtimoiy qarama-qarshiliklar sabab bo’lishi mumkin. Bundan kelib chiqib, oilalarni mustahkamlashga qaratilgan ijtimoiy dasturlar dolzarb hisoblanadi. Aholining o’sishiga migratsiya ham yaxshi ta’sir qilyabdi. Aholining ko’chib kelganlar aksariyati avval shu hududda yashagan aholi tashkil qiladi. 2023-yilda 575 nafar(3.4promilli), 2024-yilda 700 nafar(4promilli) aholi ko’chib kelgan. Bu ko’rsatkich ko’chib ketganlarda esa 2023-yilda 549 kishi (3.2 promilli), 2024-yilda 529 kishi(3 promilli)ni ko’rsatgan. Aholining qaytishga asosiy sabablardan biri tuman hududida aholi yashash sharoitining o’zgarganligi va aholining ish bilan ta’minlanish ko’rsatkichlarining kutarilganlini ko’rish mumkin. Demak, tug’ilishning kamayishi va vafotning ortishi tufayli tabiiy o’sish sur’atlari pasaymoqda. BU esa tez fursatda aholining qarish jarayonini jadallashtirish mumkin. Endi aholining jinsiy tarkibini ko’rib chiqamiz:

2024 yil ma’lumotlariga ko’ra erkaklar 89.6 ming kishi , ayollar 87.6 ming kishi tashkil qiladi. Aholining jinsiy tarkibi o’zaro mutanosib deyishimiz mumkin,Tug’ulish ko’rsatkichlarining pasayishi aholining jinsiy tarkibining o’zgarishiga ham ta’sir qiladi.

2023–2024-yillar oralig‘ida Oqdaryo tumanida aholining tabiiy o’sish ko’rsatkichlarida sezilarli pasayish kuzatildi. Tahlil natijalariga ko’ra, tabiiy o’sish o’rtacha 200 kishiga kamaygan. Agar har yili tabiiy o’sish shu sur’atda qisqarishda davom etsa, prognozlarga ko’ra, 2029-yilga borib bu ko’rsatkich 2850 kishiga, 2034-yilga kelib esa 1850 kishiga tushishi mumkin.

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

3-jadval



Manbaa: Muallif tomonidan Oqdaryo tuman statistikasi bo'limi ma'lumotlar asosida prognoz qilindi.

Bu prognoz chiziqli ekstrapolyatsiya asosida amalga oshirildi va unda boshqa omillar (masalan, migratsiya, siyosiy-iqtisodiy o'zgarishlar) barqaror deb qaralgan. Shu bois, bu prognoz ehtimoliy tavsifga ega bo'lib, real sharoitda tashqi omillar hisobga olingan holda farq qilishi mumkin.

Natijalar: Oqdaryo tumanida 2023 va 2024-yillarda aholining tabiiy o'sishi bo'yicha salbiy tendensiyalar kuzatildi. Jumladan: Tabiiy o'sish: 2023-yilda 4069 kishi (23.7%), 2024-yilda esa 3850 kishi (21.9%) bo'lib, 219 kishilik kamayish qayd etildi. Tug'ilish: 2023-yilda 4816 kishi (28.1%), 2024-yilda 4630 kishi (26.4%) – 186 kishiga kamaygan. O'lim holatlari: 2023-yilda 747 kishi (4.4%), 2024-yilda esa 780 kishi (4.5%) – o'sish tendensiyasi mavjud. Ajrimlar: 2023-yilda 154 ta (0.9%), 2024-yilda 226 ta (1.3%) – 72 taga ko'paygan. Migratsiya: 2024-yilda ko'chib kelganlar 700 kishi (4%), ko'chib ketganlar 529 kishi (3%) – aholining tuman hududiga qaytishida ijobjiy o'zgarish mavjud. Demak, tuman demografik jarayonlarida tabiiy ko'rsatkichlar kamayayotgan bo'lsa-da, migratsiya tufayli umumiy aholi soni barqarorligicha qolmoqda. Bu hududdagi yashash sharoitlari, bandlik va ijtimoiy infratuzilmalarning yaxshilanishi bilan izohlanadi.

Shuningdek, aholi tarkibidagi jinsiy mutanosiblik barqarorligicha qolmoqda. 2024-yil ma'lumotlariga ko'ra, tumanda erkaklar soni 89,600 nafar, ayollar esa 87,600 nafarni tashkil qilgan. Bu esa aholi jinsiy tarkibining nisbatan muvozanatli ekanligini ko'rsatadi. Demografik o'zgarishlar orasida tug'ilish darajasining pasayishi va ajrimlar sonining ortishi jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy muhit, oila instituti barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, yosh oilalar orasida turmushning ilk yillarda yuzaga keladigan nizolar ajrimlar ko'payishiga sabab bo'lmoqda.

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Aholi migratsiyasida ijobiy saldo kuzatilgan bo‘lsa-da, bu asosan tuman ichkarisiga qaytib kelayotgan avvalgi aholining hissasiga to‘g‘ri keladi. Bu holat hududdagi yashash sharoitlari yaxshilanayotganini va bandlik darajasining oshayotganini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, aholi tarkibida qarish jarayoni asta-sekin yuzaga kelayotgani sezilmoqda. Bu esa kelajakda ishchi kuchi bilan ta’midot, pensiya tizimi, tibbiyot xizmatlarining yuklamasi kabi masalalarini rejalashtirish zarurligini anglatadi.

Munozara: Kuzatilgan statistik ma’lumotlar asosida Oqdaryo tumanida demografik o‘sish sur’atlarining pasayishi bir qator omillar bilan izohlanadi. Bular: Tug‘ilish ko‘rsatkichlarining pasayishi respublika bo‘yicha umumiyligi tendensiyalar bilan mos keladi. Ba’zi tadqiqotchilar bu holatni yoshlarda oilaviy hayotni kech boshlash, iqtisodiy barqarorlik izlanishlari va ijtimoiy mas’uliyat hissi ortishi bilan izohlashadi

O‘lim ko‘rsatkichining ortishi salomatlik tizimidagi muammolar, sog‘lom turmush tarziga e’tibor yetishmasligi va aholi qarish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Ajrimlar sonining ko‘payishi ijtimoiy-psixologik muammolar, iqtisodiy bosim va ijtimoiy institutlar (maslahat markazlari, ruhiy yordam xizmatlari)ning yetarli emasligi bilan izohlanadi.

Migratsyaning ijobiy saldosi esa, aksincha, tuman ichki imkoniyatlarining ortib borayotganidan dalolat beradi. Ko‘chib keluvchilar sonining ortishi hududda yangi ish o‘rinlari ochilayotgani, yashash sharoitlarining yaxshilanishi, infratuzilma rivojlanayotgani bilan bog‘liq

Xulosa

Bu jarayon global miqyosda kuzatilayotgan “depopulyatsiya” hodisasining mahalliy hududlarga ham o‘z ta’sirini o‘tkazayotganidan dalolat beradi. Tabiiy o‘sishning pasayishi uzoq muddatda hududda regressiv demografik tuzilmaning shakllanishiga, ya’ni mehnatga layoqatli aholining kamayib borishiga olib kelishi mumkin.

Aholining yashash tarzi, bandlik darajasi, sog‘liqni saqlash holati, ta’lim darajasi hamda ijtimoiy-ma’naviy omillar demografik holatga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi omillar sifatida qaralmoqda. Tabiiy o‘sishni barqarorlashtirish esa hududning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti va barqaror rivojlanishini ta’minalashda muhim omil hisoblanadi. Aholi jamiyat taraqqiyoti va insoniyat hayoti rivojlanishi uchun asosiy omil bo‘lib qoladi. Aholi ham ishlab chiqaruvchi ham iste’molchi bo‘lib rivojlanib kelmoqda. Aholining o’sib borishi ushbu millatni, xalqni saqlab qolish, rivojlantirish uchun muhim omil.

Oqdaryo tumanida 2023–2024-yillar davomida aholining tabiiy o‘sish sur’atlarida pasayish kuzatildi. Bu esa hududning demografik barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, agar mayjud tendensiyalar saqlanib qolsa, yaqin 10 yil ichida tabiiy o‘sish ko‘rsatkichlarining keskin kamayishi va regressiv yosh tarkibining shakllanishi ehtimoli yuqori. Tabiiy o‘sishni rag‘batlantirish uchun quyidagi yo‘nalishlarda chora-tadbirlar ishlab chiqilishi lozim:

- yosh oilalarni qo‘llab-quvvatlash siyosatini kuchaytirish;
- mehnat bandligini oshirish va yangi ish o‘rinlari yaratish;

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

- sog‘liqni saqlash va ta’lim xizmatlari sifati va qamrovini yaxshilash;
- aholi salomatligi, tug‘ilish ko‘rsatkichlari va migrantsion jarayonlar monitoringini muntazam yuritish.

Aholi nafaqat iqtisodiy resurs, balki millat kelajagini belgilovchi eng muhim omil sifatida doimiy e’tiborda bo‘lishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. G.R. Aholi geografiyasi. – T.: O‘qituvchi. 1978. - 222 b.
2. Alekseev A.I. Mnogolikaya derevnya. – M. : Mysl. 1990. -255 s.
3. Aleskerov YU.N. Samarkand. Putevoditel. – T.: Uzbekistan. 1980. – 63 s.
4. Ata-Mirzaev O., Gentshke V., Murtazaeva R., Soliev A. Istoriko. - demograficheskie ocherki urbanizatsii Uzbekistana. – T., Universitet. 2002. – 170 s.
5. Anoxin A.A., Jitin D.V. Geografiya naseleniya s osnovami demografii. Sankt Peterburg. 2013. -307 s.
6. Asanov.M.A “Aholi geografiyasi va demografiya asoslari”. Samarqand: 2017 (o’quv qo’llanma).
7. Asanov G. R. Aholi geografiyasi. Toshkent, 1978.
8. A.A. Abdurahmonov, “Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya metodlari”, T., 2018
9. Bo‘rieva M.R. Rojdaemost v Uzbekistane. -T.: Fan, 1991. – 52 s.
10. Bo’riyeva.M.R, Tojiyeva.Z.N, Zokirov.S.S “Aholi geografiyasi va demografiya asoslari”. Toshkent: 2011 (o’quv qo’llanma).
11. Bo‘rieva M. R. Rojdaemost v Uzbekistane. Tashkent, 1997.
12. Gulishanbarov S.G. Ekonomicheskiy obzor Turkistanskogo rayona. V 2-x chastyax – Ashxabad. 1913. – 476 s.
13. Kadirov M.A. Samarqand viloyati aholi geografiyasi. -Samarqand 2017. – 142 b.
14. Kadirov Abduraxmonov K.X., va boshqalar. Demografiya – T., Fan va texnologiya. 2014. – 368 b.
15. Soliev A.S., Kadirov M.A. Geografiya naseleniya i naselennykh punktov Samarkandskoy oblasti. -Samarkand 1998. - 162 s.
16. Soliev A.S., Kadirov M.A. Geografiya naseleniya i naselennykh punktov Samarkandskoy oblasti. -Samarkand 1998. - 162 s.
17. Qayumov A.A. va boshqalar. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari. T.,2008. 257 b.
18. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent, 2001.
19. G‘.A. Saidov, “Demografiya asoslari”, T., 2019.
20. M.R. Bo‘rieva, Z.N. Tojieva, “Aholi geografiyasi va demografiya asoslari”, T., 2011.
21. A.M. Jalilov, “Geografik tadqiqot metodlari”, T., 2020.
22. S.S. Zokirov, “Demografik jarayonlarning geografik tahlili”, T., 2017.
23. <https://www.worldometers.info/world-population/>
24. <https://stat.uz/uz/>